

**Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari tomonidan  
haftalik qilingan ishlar yuzasidan  
MA’LUMOT**

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari 6-10 fevral kunlari *Respublika Ixtisoslashtirilgan Terapiya va Tibbiy reabilitatsiya, Ftiziatriya va Pulmonologiya, Pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi* hamda *Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli tibbiyot klinikasi shifoxonasida* imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **197 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati yuzasidan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

O‘tkazilgan telemuloqatlar natijasida **22(11,1%) nafar** bemorlar shifokorlarning bemorlarga muomalasidan, o‘z hisobidan dori-darmon va tekshiruvlar uchun ortiqcha sarf-harajat qilganligi, shifoxona sharoitidan qoniqmaganligi, oziq-ovqatlari yuzasidan *o‘z e’tirozlarini bildirgan*. Ushbu fuqarolardan **4(18,1%) nafari yozma murojaat** qilish uchun tashkilot manzilini olgan.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga (**99 353 93 54**)ga hafta mobaynida **233 ta** fuqarolardan murojaatlar bo‘ldi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘lijni saqlash vazirligidan kelgan “sms” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari hafta davomida **430 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga imtiyozga ega fuqarolardan **10 ta og‘zaki murojaatlar** kelib tushdi.

*Shulardan:*

*Respublika Ixtisoslashtirilgan Ftiziatriya va Pulmonologiya, Onkologiya va Radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Bolalar milliy tibbiyot markazi, Samarqand, Navoiy viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida, Sirdaryo viloyati perinatal markazida, IXLOS DOCTOR, MEDION FAMILY HOSPITAL* nodavlat tibbiyot muassasalarida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemorlar davolanish sifati yuzasidan Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlar** qilishdi. Ushbu murojaat bo‘yicha shifoxona mas’ullariga ma’lumotlari berilib ogohlantirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobjiy hal qilindi.**

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi  
Matbuot xizmati.**